

THE VALUE OF THE NATION IN THE STORY "THE LAST LESSON"

Bahronova Dilnora Alisher qizi

Student of the Faculty of Philology of Bukhara State University

Phone number: +998914000821

Annotation: This thesis is an ideological and artistic analysis of Alfonso Dode's story "The Last Lesson". The thesis provides an in-depth analysis of the political process, such as the fate of the nation, the influence of colonialism, the banning of the national language and values, as revealed in the last example of a simple French lesson. The impact of such political processes has also been studied in comparison with the bloody history of our nation.

Keywords: Alphonse Dode, The Last Lesson, Alsace, Lorraine, Mosie Amel, France, Abdullah Avloni, Paustovsky

“SO`NGGI SABOQ” HIKOYASIDA MILLAT QADRI

Bahronova Dilnora Alisher qizi

BuxDU filologiya fakulteti talabasi

Telefon raqami : +998914000821

Annotatsiya : Ushbu tezisdan Alfons Dodening “So`nggi saboq” hikoyasi g`oyaviy-badiiy tahlil qilingan. Hikoyada ilgari surilgan millat taqdiri, mustamlakachilik ta`siri, milliy til va qadriyatlarning ta`qiqlanishi kabi butun siyosiy jarayonlar ham oddiy bir fransuz tili darsining oxirgi marotaba o`tilayotgani misolida ochib berilgan tezisdan chuqur tahlil qilib berilgan. Shuningdek, bunday siyosiy jarayonlarning ta`siri millatimizning qonli tarixi bilan taqqoslab o`rganilgan.

**Kalit so`z :** Alfons Dode, “So`nggi saboq”, ELzas, Lotaringiya , Mosye Amel, Frans, Abdulla Avloniy, Paustovskiy

Alfons Dodening ushbu hikoyati hajman juda kichik bo`lsa-da, kitobxon undan juda katta ma`no oladi. Nemislarning XIX asrdagi mustamlakasi bo`lgan Fransiyaning mustamlakachilik zulmi ostida qolgani, milliy til o`rniga mustamlakachi davlat milliy tilining o`qitilishi, yani aholini “nemislashtirish” va nemis madaniyatini keng yoyish siyosati boshlanadi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bizga ham ruslar tomonidan xuddi shu siyosat qo`llandi va xuddi shu siyosiy jarayon yuz berdi, ya`ni aholi “ruslashtirildi”). Mamlakatdagi bunday siyosiy jarayonlarni o`zgarish jarayonini Alfons Dode asarida “... nemis safda yurish mashg`ulotlari boshlandi” singari chuqur tag ma`noli jumlar orqali bayon etadi.

Hikoya Frans ismli yosh bir bola tilidan hikoya qilinadi. Hikoyada fransuz tili o`qituvchisi Mosye Amel oxirgi bor fransuz tilidan saboq berayotgan edi, sinf xonasida sinfdosh – tengdoshlaridan tashqari mahalla fuqarolari va keksalari ham oxirgi darsda ishtirok etishadi. Xullas, darsdani kuchli pofoslar, fransuz tili o`qituvchisi mosye Amelning

kishini to'liqlantiruvchi, kitobxon etini junjukturuvchi, kechli ehtiroslar hikoya yaqqol o'z aksini topgan. Voqea tavsilotlari Frans hayoti misolida va uning dunyoqarashi, uning fikrlashi misolida ochib berilgan.

Alfons Dode – shu kichkina hikoyasi orqali fransuz tilining boshqa o'qitilmasligi, ya'ni milliy til o'rniga endi nemis tilining o'rgatilishi misolida butun boshli siyosiy davr muhitini, siyosiy ahvolni va qonli tarixni ifodalay olgan buyuk yozuvchidir. Alfons Dodening “So'nggi saboq” hikoyasidagi ushbu siyosiy jarayonlar nafaqat Fransiya, balki tarixning qonli zarvaraqlarida mustamlakachilikning og'ir tuzumini sabr-bardosh bilan yenga olgan barcha mustamlaka davlatlar taqdiri ko'rsatib berilgan. Ya'nikim birgina Fransiyaning nemislarga tobe bo'lgan davrdagi siyosatni fransuz tilining oxirgi sabog'i orqali juda ta'sirchan va chuqur ma'noli tarzda ifodalay olgan.

Mazkur hajman kichik hikoyada milliy o'zlikni anglash ruhi ufurib turadi. Bu ayniqsa fransuz tili muallimining o'z ona tili uchun jonkuyarligi, uni qon-qonida jo'shib oqayotgan ajdodlarining milliy fransuz tilini o'z hayotidan ortiq sevishi kishini beixtiyor o'z tiliga bo'lgan hurmatini oshirib yuboradi. Hikoyada Fransiyaning Elzas va Lotaringiya hududi nemislar tomonidan ishg'ol qilingach, bu hududlarda endi o'rniga nemis tilining o'tilishi majburiy etib qo'yildi. Shuning uchun bu hududga tegishli maktabda oxirgi dars mashg'uloti, so'nggi saboq – xuddi o'z tilini qabrga qo'yayotgan millat yanglig' ko'zga tashlanadi.

Mazkur hikoyada yozuvchi aynan man shunday siyosatni ochiqdan-ochiq xalqqa ko'rsatib berishga harakat qiladi. Qaysi bir millat bo'lmasin o'z ona tili, o'z milliy tilining qadriga befarq bo'lmasligi va uni ko'z qorachig'idek asrash kerakligi g'oyasini ilgari suradi.

Bu bevosita bizning yaqin o'tmishimizga ham taalluqli, albatta. Chunki Sobiq sho'ro hukumati davrida ham o'z tilini xalq ongigasingdirish orqali butun jamiyatni o'z ona tilidan ancha uzoqlashtirib, manqurt shaxslar to'dasiga aylantirib, o'z siyosatini yorug'likka chiqarish mustamlakachilik tuzumi bevosita ko'zga tashlanadi. Bu urinish dastlab til va adabiyotdan boshlanadi. Bu bejiz emas, chunki “har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'an oyina hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”, deya fikr yuritganda Abdulla Avloniy ming karra haqli edi. Darhaqiqat, milliy tilni yo'qotmoq “millatni batamom yo'qotmoqlikdir”. Shuning uchun ham bosqinchi davlat o'ziga tobe qilib bo'ysundirmoqchi bo'lgan millatning milliy o'zligiga, milliy tiliga bolta urishdan boshlagan. Chunonchi, Paustovskiy ta'kidlaganidek: “Til millatning birinchi haqqidir. Agar shu haq o'ksitilgan bo'lsa, demak millat o'zini-o'zi o'ksitib kelgan”.

Hikoyada Mosye Amelning “Biz o'zimizdan o'pkalashimiz kerak. Ota-onalarimizning o'qishlarimiz haqida ko'p ham qayg'uraverishmaydi. Maktabga jo'natish o'rniga qo'shimcha aqchaga ega bo'lish maqsadida sizlarni dalaga yoki fabrikaga ishlash uchun yuborishadi” singari yangroq, fidokorona so'zlari bizning mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashgan, ozodlik kuychisi bo'lgan adiblarimiz va allomalarimizning da'vatli so'zlariga o'xshab ketadi. Chunonchi, jadid adabiyotining yetuk namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza AHkimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi bir qancha fidokor, jonkuyar va millatparvar ziyolilarimiz singari hikoyada keltirilgan fransuz tili o'qituvchisi Mosye Amel ham millat taqdiri uchun, uning ertasi, milliy til qadri, milliy qadriyatlar va urf-odatlar, xullas, Fransiyaning o'z “men”ligini batamom unutishi haqida aniq bilgan holda barcha tinglovchilarga yonib-kuyib gapiradi,

o`pkasi to`lib so`zlaydi. Bu xuddi bizning jadid davri adabiyotidagi ziyolilarimizga o`xshab ketadi. Demakki, bunday millatparvar ziyolilar har qachon millat taqdiri uchun yonib yashaydi, ular o`z yurtining ayanchli taqdiriga jimgina qarab tura olmaydi. Binobarin, haqiqiy insoniylik aslida ana shu pallada bilinadi va bunday ziyolilar insoniylikning kamolotiga erishgan daholardir. Bunday insonlar bilan har qanday millat, har qaysi inson har qancha faxrlansa ham ozdir.